THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR USING DSTI AND DTI INDICATORS IN ASSESSING HOUSEHOLD DEBT BURDEN

Raxmanova Odinaxon Akbarali qizi

Lecturer, Department of Economics, Profi University

Abstract

This thesis examines the theoretical and methodological characteristics of the debt-service-to-income (DSTI) and debt-to-income (DTI) ratios in assessing household debt burden. The study analyzes the differences between these indicators, their role in evaluating credit risks, and their application in banking practices in Uzbekistan. The necessity of using DSTI and DTI indicators jointly when assessing the financial condition of borrowers is substantiated.

Keywords

debt burden, DSTI, DTI, households, credit risk, macroprudential policy, lending.

UY XO‘JALIKLARI QARZ YUKINI BAHOLASHDA DSTI VA DTI KO‘RSATKICHLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Raxmanova Odinaxon Akbarali qizi

Profi University, Iqtisodiyot kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu tezisda uy xo‘jaliklari qarz yukini baholashda qarzga xizmat ko‘rsatishning daromadga nisbati (DSTI) va qarzning daromadga nisbati (DTI) ko‘rsatkichlarining nazariy hamda uslubiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Ko‘rsatkichlarning o‘zaro farqi, kredit risklarini baholashdagi o‘rni va O‘zbekiston bank amaliyotida qo‘llanilishi tahlil

qilingan. Qarz oluvchining moliyaviy holatini baholashda DSTI va DTI indikatorlarini birgalikda qo‘llash zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: qarz yuki, DSTI, DTI, uy xo‘jaliklari, kredit riski, makroprudensial siyosat, kreditlash.

Uy xo‘jaliklari kreditlash hajmining o‘sishi moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy faollikning rivojlanishiga xizmat qilishi bilan birga, qarz oluvchilarning ortiqcha qarzdorligi bilan bog‘liq xatarlarni ham kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlashda daromad miqdorini alohida baholash yetarli emas. Uning jami qarzdorligi va kreditlar bo‘yicha davriy to‘lovlari daromadiga nisbatan qanday darajada ekanligi ham aniqlanishi lozim.

Xalqaro makroprudensial amaliyotda bunday baholashning asosiy vositalari sifatida DSTI va DTI ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi.

DSTI (Debt-Service-to-Income) qarz oluvchining kredit majburiyatlari bo‘yicha amalga oshiradigan davriy to‘lovlarining uning daromadiga nisbatini ifodalaydi.

DSTI = (Kreditlar bo‘yicha oylik to‘lovlar / oylik daromad) × 100

Masalan, qarz oluvchining oylik daromadi 10 mln so‘m va jami kredit to‘lovlari 4 mln so‘mni tashkil etsa, DSTI 40 foiz bo‘ladi. Bu qarz oluvchi daromadining 40 foizi kredit majburiyatlarini bajarishga sarflanayotganini anglatadi.

DTI (Debt-to-Income) esa qarz oluvchining jami qarzdorligi va uning daromadi o‘rtasidagi nisbatni tavsiflaydi. DTIning DSTIdan asosiy farqi shundaki, DSTI qarzga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq joriy to‘lovlarni, DTI esa qarzdorlikning umumiy hajmini aks ettiradi.

Shuning uchun bir qarz oluvchi bo‘yicha DSTI maqbul darajada bo‘lishi uning umumiy qarzdorligi ham maqbul ekanligini anglatmaydi. Uzoq muddatli kreditning oylik to‘lovi kichik bo‘lishi natijasida DSTI nisbatan past bo‘lishi mumkin, biroq qarz oluvchining jami qarzdorligi daromadiga nisbatan juda yuqori bo‘lishi ehtimoli mavjud.

O‘zbekistonda jismoniy shaxslarni kreditlash bo‘yicha DSTI ko‘rsatkichining yuqori chegarasi 2025-yil 1-yanvardan asosiy hollarda 50 foiz darajasida belgilangan.

2026-yil 1-martdan iste’mol kreditlari va mikroqarzlar bo‘yicha DTI talabi ham joriy etildi. O‘rtacha oylik daromadi aniqlanishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxslar va o‘zini o‘zi band qilganlar uchun qarz miqdorining daromadga nisbati 8 barobardan, daromadi belgilangan tartibda aniqlanishi mumkin bo‘lmagan jismoniy shaxslar uchun esa 5 barobardan oshmasligi belgilangan.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunida bankdan kredit olgan jismoniy shaxslarning bank va nobank majburiyatlari inobatga olingan o‘rtacha DSTI darajasi 38 foizdan 37 foizgacha kamaygan. Biroq mikroqarzlar bo‘yicha o‘rtacha DSTI 40 foizgacha oshgan.

Bu esa ayniqsa mikroqarzlar va iste’mol kreditlarida DSTI va DTI ko‘rsatkichlaridan kompleks foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, qarz oluvchilarni quyidagi to‘rt guruhga ajratish mumkin:

• 1-guruh — past risk: DSTI past, DTI past;

• 2-guruh — yashirin uzoq muddatli risk: DSTI past, DTI yuqori;

• 3-guruh — likvidlik riski: DSTI yuqori, DTI nisbatan past;

• 4-guruh — yuqori risk: DSTI yuqori va DTI yuqori.

Mazkur yondashuv faqat bitta ko‘rsatkichga asoslangan baholashga nisbatan qarz oluvchining kredit riskini aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, qarz yukini baholashda bank va nobank moliya tashkilotlaridagi barcha majburiyatlarni hisobga olish muhim. 2025-yilning birinchi yarmida bank qarz oluvchilarining 47 foizida bittadan ortiq bank yoki nobank qarz majburiyati mavjud bo‘lgan.

Xulosa qilib, DSTI va DTI o‘zaro raqobat qiluvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ko‘rsatkichlardir. DSTI qarz oluvchining joriy to‘lov qobiliyatini, DTI esa qarzdorlikning uzoq muddatli barqarorligini baholash imkonini beradi.

Shuning uchun O‘zbekiston bank tizimida jismoniy shaxslarning kredit riskini baholashda DSTI–DTI matritsasiga asoslangan differensial risk tasnifini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv uy xo‘jaliklarining ortiqcha qarzdorligini erta aniqlash, muammoli kreditlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Qarzga xizmat ko‘rsatishning daromadga nisbati (DSTI), 2026.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Qarzning daromadga nisbati (DTI), 2026.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil uchun Moliyaviy barqarorlik sharhi, 2026.

4. BIS. Macroprudential policies to mitigate housing market risks.

5. Karmelavičius J., Otten J. Household Behavior under Macroprudential Borrower-Based Measures. IMF Working Paper, 2026.